

**Bobur SHAMSIYEV**

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi**

## **TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLAR ULUSHINI QISQARTIRISH YO‘LLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**Annotatsiya.** Ushbu tadqiqot tijorat banklarida muammoli kreditlar (NPL) ulushining shakllanish sabablari va ularni qisqartirish yo‘llarini nazariy hamda tahliliy jihatdan asoslashga bag‘ishlangan. Tadqiqot jarayonida kredit berish jarayonida risklarni baholash, kredit monitoringi, kreditlarni tasniflash va qayta tuzish mexanizmlarining NPL darajasiga ta’siri tizimli ravishda o‘rganilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalar va ilg‘or boshqaruv mexanizmlarini joriy etish orqali kredit portfeli sifatini yaxshilash imkoniyatlari tahlil qilingan. Olingan natijalar muammoli kreditlarni erta aniqlash va ularning bank moliyaviy barqarorligiga salbiy ta’sirini kamaytirishda kompleks yondashuv muhim ekanini ko‘rsatadi. Tadqiqot xulosalari tijorat banklarida NPL ulushini qisqartirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish va bank risklarini boshqarish tizimini takomillashtirishda ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so‘zlar:** tijorat banklari, muammoli kreditlar, NPL, kredit riski, kredit portfeli sifati, moliyaviy barqarorlik, kredit monitoringi, risklarni baholash, kreditlarni tasniflash, restrukturizatsiya, garov ta’minoti, bank nazorati, raqamli bank texnologiyalari, bank boshqaruvi, strategik rejalashtirish.

## **IMPROVING WAYS TO REDUCE THE SHARE OF NON- PERFORMING LOANS IN COMMERCIAL BANKS**

**Abstract.** This study is devoted to the theoretical and analytical substantiation of the causes behind the formation of non-performing loans (NPLs) in commercial banks and the ways to reduce their share. In the course of the research, the impact of credit risk assessment, credit monitoring, loan classification, and restructuring mechanisms on the level of NPLs is systematically examined. In addition, the possibilities of improving credit portfolio quality

through the implementation of digital technologies and advanced management mechanisms are analyzed. The obtained results demonstrate that a comprehensive approach plays a crucial role in the early identification of problem loans and in mitigating their negative impact on the financial stability of banks. The conclusions of the study have scientific and practical significance for developing practical recommendations aimed at reducing the share of NPLs in commercial banks and improving bank risk management systems.

**Keywords:** commercial banks, non-performing loans, NPL, credit risk, credit portfolio quality, financial stability, credit monitoring, risk assessment, loan classification, restructuring, collateral security, banking supervision, digital banking technologies, bank management, strategic planning.

## **СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПУТЕЙ СОКРАЩЕНИЯ ДОЛИ ПРОБЛЕМНЫХ КРЕДИТОВ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ**

**Аннотация.** Настоящее исследование посвящено теоретическому и аналитическому обоснованию причин формирования проблемных кредитов (Non-Performing Loans, NPL) в коммерческих банках, а также разработке путей сокращения их доли. В процессе исследования системно изучено влияние оценки кредитных рисков, кредитного мониторинга, классификации кредитов и механизмов их реструктуризации на уровень NPL. Кроме того, проанализированы возможности повышения качества кредитного портфеля за счёт внедрения цифровых технологий и передовых механизмов управления. Полученные результаты свидетельствуют о том, что комплексный подход играет ключевую роль в раннем выявлении проблемных кредитов и снижении их негативного воздействия на финансовую устойчивость банков. Выводы исследования обладают научно-практической значимостью при разработке прикладных рекомендаций по сокращению доли проблемных кредитов в коммерческих банках и совершенствованию системы управления банковскими рисками.

**Ключевые слова:** коммерческие банки, проблемные кредиты, NPL, кредитный риск, качество кредитного портфеля, финансовая устойчивость, кредитный мониторинг, оценка рисков, классификация кредитов,

реструктуризация, залоговое обеспечение, банковский надзор, цифровые банковские технологии, банковское управление, стратегическое планирование

### **Kirish**

Tijorat banklari milliy iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash va ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish hamda infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish orqali iqtisodiy o'sishga bevosita hissa qo'shadi. Ular nafaqat kredit resurslarini taqdim etib, korxona va aholi ehtiyojlarini qondiradi, balki depozitlarni jalb qilish orqali jamg'armalarni shakllantiradi va ularni iqtisodiy faoliyatga yo'naltiradi. Shu bilan birga, tijorat banklari moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, inflyatsiya va likvidlik xavflarini boshqarish, shuningdek, makroiqtisodiy barqarorlikni qo'llab-quvvatlash vazifalarini bajaradi. Ularning faoliyati investitsiya muhitini yaxshilash, ish o'rinlari yaratish va milliy pul-kredit siyosatini samarali amalga oshirishda strategik ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro amaliyotdan ma'lumki, tijorat banklari faoliyatida muammoli kreditlar ulushining yuqori darajada saqlanib qolishi bank tizimining moliyaviy barqarorligiga, likvidlik ko'rsatkichlariga hamda real sektorni kreditlash imkoniyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, makroiqtisodiy beqarorlik, inflyatsion bosimlar va tashqi iqtisodiy xavflar kuchayib borayotgan sharoitda muammoli kreditlarning ortishi bank kapitalining yetarliligini pasaytiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Kredit portfeli sifati yomonlashuvi banklarning risklarni boshqarish tizimidagi institutsional kamchiliklarni yuzaga chiqaradi. Shu bilan birga, kredit ajratish jarayonida qarz oluvchilarning moliyaviy holatini chuqur tahlil qilmaslik muammoli kreditlar ulushining oshishiga olib kelmoqda. Jahon Banki ma'lumotlariga ko'ra, 2022–2023-yillarda dunyo bo'yicha tijorat banklarida muammoli kreditlarning (NPL) o'rtacha ulushi 5,5–6,0 % atrofida shakllangan bo'lib, bu global bank tizimida kredit risklari saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. Hududlar kesimida ushbu ko'rsatkich yuqori daromadli mamlakatlarda 2,0–3,0 %, rivojlanayotgan va past daromadli mamlakatlarda esa 8,0–10,0 % darajasiga yetgan<sup>[1]</sup>. Ayrim mamlakatlarda, xususan moliyaviy inqiroz

<sup>1</sup> <https://data.worldbank.org/indicator/FB.AST.NPER.ZS> - World Bank. Bank nonperforming loans to total gross loans (%). World Development Indicators (WDI), 2022–2023.

va institutsional zaiflik mavjud iqtisodiyotlarda, muammoli kreditlar ulushi 20–30 % dan yuqori bo‘lib, bank sektorining barqarorligiga jiddiy tahdid solmoqda[2]. Ushbu statistik raqamlar kredit portfeli sifatini yaxshilash va muammoli kreditlar ulushini qisqartirish masalasi xalqaro miqyosda ham dolzarb ekanini yaqqol namoyon etadi. Mazkur holat tijorat banklarida kredit siyosatini qayta ko‘rib chiqish va uni zamonaviy risk-menejment tamoyillari asosida takomillashtirish zaruratini kuchaytirmoqda. Shunday sharoitda muammoli kreditlar ulushini qisqartirish yo‘llarini ilmiy asosda o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tijorat banklarida muammoli kreditlar ulushini qisqartirish bank tizimining barqaror rivojlanishini ta‘minlashda strategik ahamiyatga ega bo‘lib, bu jarayon bank kapitali va aktivlar sifati o‘rtasidagi muvozanatni mustahkamlashga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma‘lumotlariga ko‘ra, 2025-yil 1-sentyabr holatiga ko‘ra, tijorat banklarining umumiy kredit portfeli 581 057 mlrd so‘mni tashkil etar ekan, muammoli kreditlar (NPL) jami 21 802 mlrd so‘mni va bu kreditlar umumiy kreditlar ichida 3,8 % ulushni egallagan. Xususan, davlat ulushi mavjud banklarda muammoli kreditlar ulushi ham 3,8 % atrofida bo‘lib, “Biznesni rivojlantirish banki” va “Mikrokreditbank” kabi banklarda NPL ulushi 6,0-6,5 % atrofida qayd etilgan[3]. Bu ma‘lumotlar tijorat banklarining aktivlar sifatini oshirish uchun prudensial boshqaruvni yanada mustahkamlash lozimligini ko‘rsatadi. Muammoli kreditlarning kamayishi banklarning daromadlilikini oshiradi hamda kredit resurslarining iqtisodiyot tarmoqlariga samarali yo‘naltirilishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, kredit risklarini oldindan baholash va monitoring mexanizmlarini takomillashtirish orqali banklar moliyaviy yo‘qotishlar ehtimolini sezilarli darajada kamaytirishi mumkin. Bu holat depozitlar xavfsizligini oshirib, aholi va tadbirkorlik subyektlarining bank tizimiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Natijada, bank-mijoz munosabatlarining institutsional sifati yaxshilanadi. Demak, muammoli kreditlar ulushini qisqartirish masalasi bank tizimi samaradorligini oshirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Raqamli texnologiyalar va zamonaviy moliyaviy instrumentlar jadal rivojlanayotgan sharoitda tijorat banklarida muammoli kreditlar ulushini qisqartirish masalasi yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Kreditlash jarayonida skoring modellari, stress-testlar va erta ogohlantirish tizimlaridan samarali

foydalanmaslik muammoli kreditlar riskini oshiruvchi omil bo'lib qolmoqda. Shu sababli, kredit portfelini diversifikatsiya qilish va muammoli aktivlarni restrukturizatsiya qilish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Mazkur chora-tadbirlar banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash bilan bir qatorda, iqtisodiy o'sishni kredit resurslari orqali qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. Shuningdek, muammoli kreditlar ulushining qisqarishi bank nazorati va prudensial talablarning samaradorligini oshiradi. Natijada, ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar bank tizimini isloh qilish jarayonida muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

### **Adabiyotlar sharhi**

Tijorat banklarida muammoli kreditlar (NPL) ulushi moliyaviy barqarorlik va bank sektorining samarali faoliyati uchun hal qiluvchi omil hisoblanadi, chunki yuqori darajadagi NPLlar bank kapitali va likvidligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. So'nggi yillarda O'zbekiston bank tizimida NPLlarning monitoringi va boshqaruvi samaradorligini oshirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda, bu esa kredit siyosatini takomillashtirishni talab qiladi. Xalqaro va mahalliy tajribalar, jumladan tijorat banklari misoli va rivojlangan mamlakatlardagi ilg'or amaliyotlar, NPLlarni kamaytirishning samarali mexanizmlari mavjudligini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, ilmiy tadqiqotlar NPLlarni aniqlash, monitoring qilish va boshqarish bo'yicha tizimli yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratini ta'kidlaydi.

Iqtisodchi olimlardan Khairi, Bahri va Artha (2021) chakana banklarning kreditlash tizimi va muammoli kreditlar (NPL) o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlik tahlil qilingan. Tadqiqotchilar global moliyaviy inqiroz davrida NPLlar banklarning likvidligi va kapital yetarliligiga salbiy ta'sir ko'rsatganini aniqlashgan[4]. Shuningdek, ularning tahlillari NPLlarning rentabellik va bank risklarini boshqarish mexanizmlariga bevosita ta'sirini ko'rsatadi. Tadqiqot mualliflari muammoli kreditlarni kamaytirish uchun ilg'or monitoring tizimlari va strategik boshqaruvni joriy etish zarurligini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, NPLlarni boshqarish nafaqat moliyaviy barqarorlik, balki milliy iqtisodiyotdagi kredit oqimining sifatini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga,

tadqiqot banklar va regulyatorlar uchun qarz oluvchilarni tahlil qilish va risklarni aniqlashda ilmiy asos yaratadi.

AQSh bank sektori misolida olib borilgan tadqiqotda Saba, Kouser va Azeem (2012) NPLlarning makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, jumladan foiz stavkalari, inflyatsiya va yalpi ichki mahsulot o'sishi bilan bog'liqligini o'rganadi. Tadqiqotchilarning natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu makro omillar NPL darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, bu esa banklar uchun kredit siyosatini rejalashtirishda muhim signal hisoblanadi[5]. Tadqiqot shuningdek, global moliyaviy inqiroz davrida banklar NPLlarni oldindan aniqlash va ularni boshqarish mexanizmlarini mustahkamlash zaruriyatini ilmiy asosda ko'rsatadi. Mualliflar NPL monitoringini kuchaytirish va bank siyosatini optimallashtirish orqali moliyaviy barqarorlikni oshirish yo'llarini taklif qiladi. Shu bilan birga, tadqiqot NPLlarni qisqartirish strategiyalarining nazariy va amaliy ahamiyatini yoritadi. Tadqiqotchilar ilg'or xalqaro tajribani joriy etish orqali bank operatsion risklarini kamaytirish imkoniyatini ham ta'kidlaydi.

Rivojlanayotgan davlatlarda olib borilgan tadqiqotda Khan, Siddique va Sarwar (2020) NPLlarni aniqlovchi mikro va makro omillarni chuqur tahlil qiladi. Ularning tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, global inqirozlar banklarning moliyaviy barqarorligiga NPLlar orqali bevosita ta'sir qiladi. Tadqiqotchilar, shuningdek, kredit portfeli diversifikatsiyasi va qarz oluvchilarning moliyaviy holatini tahlil qilish orqali NPLlarni kamaytirish imkoniyatlarini aniqlaydi. Tadqiqot bank va regulyatorlar uchun strategik qarorlarni shakllantirishda ilmiy asos sifatida xizmat qiladi[6]. Shu bilan birga, mualliflar NPLlar bilan ishlashda ilg'or xalqaro tajribani qo'llash zaruratini ta'kidlaydi. Tadqiqot nafaqat NPL monitoringini, balki bank sektorining barqaror rivojlanishi va moliyaviy risklarni boshqarish yo'llarini ham yoritadi.

Messai va Jouini (2013) mikro va makro iqtisodiy omillar orqali NPLlarni tahlil qilgan bo'lib, bank ichidagi ko'rsatkichlar, jumladan kapital yetarliligi, likvidlik va qarzlar portfelining tuzilishi NPLlar darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini aniqlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy o'sish va makroiqtisodiy siyosat NPLlarni aniqlash va boshqarishda strategik ahamiyatga ega. Mualliflar, shuningdek, NPLlarni kamaytirish uchun erta ogohlantirish



tizimlari va skoring modellarini joriy etish samaradorligini tahlil qiladi. Tadqiqot, banklar va regulyatorlar uchun nazariy va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqadi[7]. Shu bilan birga, mualliflar NPLlar bilan ishlashda bank sektorining barqarorligini ta'minlash uchun global va mahalliy sharoitlarni hisobga olish zaruratini urg'ulaydi. Tadqiqot NPLlarni boshqarishning ilmiy yondashuvini shakllantiradi va strategik qarorlar qabul qilishda muhim qo'llanma sifatida xizmat qiladi.

Makri, Tsagkanos va Bellas (2014) tadqiqotida Yevrozonada 2000–2008 yillarda NPLlarni aniqlovchi omillarni sistematik tahlil qilgan, bu davr moliyaviy inqiroz oldi sharoitini aks ettiradi. Tadqiqotchilar makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, shu jumladan yalpi ichki mahsulot o'sishi, inflyatsiya va foiz stavkalari NPLlar darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini aniqlaydi[8]. Shuningdek, bank ichidagi xususiyatlar, masalan kapital yetarliligi va kredit portfelining sifati NPLlarni tushunishda muhim omil sifatida tahlil qilingan. Tadqiqot, regulyatorlar va banklar uchun NPLlarni oldindan aniqlash va boshqarish bo'yicha strategik tavsiyalarni ishlab chiqishga ilmiy asos yaratadi. Shu bilan birga, tadqiqot Evrozonadagi bank tizimi barqarorligini ta'minlash va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash nuqtai nazaridan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchilar global va mahalliy kontekstda NPLlarni boshqarishning samarali yondashuvini taklif qiladi.

Mahalliy iqtisodchi olimlarimizdan Tillayev "Hamkorbank" ATB misolida tijorat banklarida muammoli kreditlar (NPL) ulushini kamaytirish yo'llari tahlil qilingan. Tadqiqot muallifi NPLlarning asosiy sabablarini aniqlab, mavjud boshqaruv mexanizmlarini baholaydi va ularni xalqaro ilg'or tajribalar asosida takomillashtirishni taklif qiladi<sup>[9]</sup>. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, kreditlarni qayta tuzish, monitoring tizimlarini kuchaytirish, garov talablarini mustahkamlash va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali NPLlar ulushi sezilarli darajada qisqartirilishi mumkin. Muallifning yondashuvi nafaqat banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga, balki mijozlar bilan munosabatlarni yaxshilashga ham yo'naltirilgan.

Xorijiy tajriba asosida tijorat banklarida muammoli kreditlarni undirish yondashuvlarini iqtisodchi olim Axrorqulovning ilmiy tadqiqotlarida o'rganilgan. Tadqiqot muallifi AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya, Hindiston va Skandinaviya mamlakatlarida qo'llaniladigan kompleks yondashuvlarni tahlil qiladi. Tadqiqot

shuni ko'rsatadiki, ilg'or texnologiyalar, huquqiy mexanizmlar va institutsional islohotlarni birlashtirish muammoli kreditlarni kamaytirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Muallifning fikricha, bankning kredit portfeli tarkibidagi sifatli aktivlar ulushi uning moliyaviy barqarorligi va bozor ishonchliligini belgilovchi muhim omildir<sup>[10]</sup>. Shu bilan birga, tadqiqot NPLlarni qisqartirish strategiyalarini ishlab chiqishda xalqaro tajribani joriy etish zaruratini ilmiy asosda ko'rsatadi. Tadqiqot bank rahbariyatiga muammoli qarzlar bilan ishlashning samarali mexanizmlarini shakllantirishda yo'l-yo'riq beradi.

Iqtisodchilardan Abdurayimov tadqiqotida tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlash samaradorligini oshirish yo'llari mikro va makro omillar asosida tahlil qilingan<sup>[11]</sup>. Tadqiqot muallifi NPLlarning guruhlanishi va tarkibini, shuningdek ularning paydo bo'lishiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni o'rganadi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, banklarda kreditlash jarayonida kuzatiladigan belgilardan kelib chiqib, muammoli kreditlarni erta aniqlash va ularni boshqarish imkoniyatlari mavjud. Muallifning yondashuvi problematik aktivlar va kreditlarni substandard, shubhali yoki umidsiz kreditlar sifatida tasniflash orqali ularni samarali boshqarishning nazariy asosini yaratadi. Tadqiqot, shuningdek, bank xodimlari va regulyatorlar uchun NPLlarni kamaytirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar beradi. Shu bilan birga, tadqiqot NPLlarni boshqarish jarayonida innovatsion yondashuvlarni joriy etish zaruratini urg'ulaydi.

Tahlil qilingan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlash bankning moliyaviy barqarorligi va bozor ishonchliligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi, chunki NPLlar bankning kapitali va rentabelligiga bevosita ta'sir qiladi. Tadqiqotlar asosida aniqlanishicha, kredit portfeli diversifikatsiyasi, monitoring tizimlarini kuchaytirish, raqamli texnologiyalar va ilg'or xalqaro tajribalarni joriy etish NPL ulushini samarali kamaytirish imkonini beradi. Shuningdek, bank ichki ko'rsatkichlari, makroiqtisodiy omillar va regulyativ siyosat NPLlarni boshqarishda asosiy determinantlar sifatida e'tirof etiladi. Tadqiqotlar NPLlarni qisqartirish strategiyalarini ishlab chiqish orqali banklar va regulyatorlar uchun nazariy va amaliy yo'riqnomalarni shakllantiradi. Shu bilan birga, ilmiy tadqiqotlar NPLlarni boshqarishning kompleks yondashuvi, jumladan qarz oluvchilarni tahlil qilish,



problematik aktivlarni tasniflash va moliyaviy boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini urg‘ulaydi. Muammoli kreditlar bilan ishlash bo‘yicha ilg‘or yondashuvlarni joriy etish nafaqat bank sektorining barqarorligini oshiradi, balki milliy iqtisodiyotning kredit tizimining sifatini yaxshilashga ham xizmat qiladi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Ushbu tadqiqot tijorat banklarida muammoli kreditlar (NPL) ulushini kamaytirishning samarali mexanizmlarini aniqlash maqsadida amalga oshirilgan bo‘lib, unda sifatli va miqdoriy tahlil metodlari birlashtirilgan. Tadqiqot doirasida “Hamkorbank” ATB misolida milliy tajriba tahlil qilingan, shuningdek, AQSh, Germaniya, Hindiston va Skandinaviya mamlakatlaridagi ilg‘or xalqaro amaliyotlar solishtirilgan. Ma’lumotlar manbai sifatida O‘zbekiston Markaziy banki statistik hisobotlari, banklarning yillik moliyaviy ko‘rsatkichlari hamda mavjud ilmiy maqolalar va tadqiqotlar asos qilib olingan. Tadqiqot metodologiyasida NPLlarni aniqlash, ularni tasniflash (substandard, shubhali, umidsiz) va monitoring qilish jarayonlari, shuningdek, kredit portfeli tahlili va risk baholash mexanizmlari chuqur o‘rganilgan. Shu tarzda, metodologiya NPLlarni boshqarish bo‘yicha ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hamda banklar va regulyatorlar uchun strategik yo‘riqnoma tayyorlash imkonini beradi.

### **Tahlil va natijalar**

Bizga ma’lumki, tijorat banklarida muammoli kreditlar ulushining kamaytirilishi banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va kapital yetarliligi hamda likvidlikni ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega, chunki yuqori NPL ulushi kredit resurslarining samarali taqsimlanishiga to‘sqinlik qiladi. Global va milliy moliya tizimida barqarorlikni saqlash sharoitida NPLlarni qisqartirish masalasi bank risklarini boshqarish va barqaror kreditlashni ta’minlash nuqtai nazaridan dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ilg‘or monitoring tizimlari, raqamli texnologiyalar va xalqaro tajribalar yetarli darajada joriy etilmagan banklarda muammoli kreditlar ulushining oshishi moliyaviy tizim uchun tizimli xavf tug‘diradi. Shu sababli, tijorat banklarida muammoli kreditlar ulushini qisqartirish yo‘llarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan mexanizmlarni

ishlab chiqish bank tizimi barqarorligi va milliy iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun muhim hisoblanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda qayd etilganidek, tijorat banklarida muammoli kreditlar (NPL) — bu bank tomonidan berilgan va muddatida to'liq yoki qisman qaytarilmayotgan, yuqori riskli qarzlarni bo'lib, ular bankning moliyaviy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi<sup>[12]</sup>. NPLlar odatda substandard, shubhali yoki umidsiz kreditlar sifatida tasniflanadi, bu esa ularning qaytarilish ehtimoli va bank riskiga ta'sir darajasini aniqlash imkonini beradi. Shu sababli, tijorat banklarida NPLlarni aniqlash, monitoring qilish va boshqarish tizimi moliyaviy barqarorlikni saqlash va kredit portfelining sifatini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Tijorat banklarida muammoli kreditlar (NPL) ulushi bank kapitali, likvidlik va rentabellik ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun ularni aniqlash, tasniflash va boshqarish tizimi har bir bank faoliyati uchun muhim ahamiyatga ega. NPLlar substandard, shubhali va umidsiz kreditlar sifatida tasniflanib, ularning portfeldagi ulushi bankning moliyaviy barqarorligini baholashda asosiy indikator hisoblanadi. Banklarda NPLlarni kamaytirishning samarali mexanizmlari kredit portfeli diversifikatsiyasi, qarz oluvchilarni moliyaviy tahlil qilish, monitoring tizimlarini takomillashtirish va ilg'or raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali amalga oshiriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xalqaro tajribada ilg'or kredit riskini boshqarish modellarini joriy etish va garov talablarini kuchaytirish orqali banklarning NPL ulushi sezilarli darajada kamaytirilgan. Shu bilan birga, mahalliy banklar misolida olib borilgan tahlillar NPLlarni boshqarishda strategik yondashuv va regulyator nazoratining muhimligini ko'rsatadi. NPLlarni qisqartirish bankning moliyaviy barqarorligini oshirish bilan birga, kredit portfelining sifatini yaxshilash va milliy iqtisodiyotga sarmoya oqimini rag'batlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot doirasida olingan natijalar asosida banklar va regulyatorlar uchun NPLlarni boshqarish bo'yicha ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shu nuqtai nazardan, muammoli kreditlar bilan ishlash tizimining takomillashuvi banklar faoliyatining samaradorligi va milliy moliya tizimi barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi omil sifatida e'tirof etiladi.

1-jadval

**O‘zbekiston banklarida NPL ulushi (%) (2022–2024)**

| Bank nomi    | 2022 (%) | 2023 (%) | 2024 (%) |
|--------------|----------|----------|----------|
| Hamkorbank   | 6.1      | 5.8      | 5.2      |
| Ipoteka Bank | 7.4      | 6.9      | 6.5      |
| Asaka Bank   | 5.9      | 5.5      | 5.1      |
| Agrobank     | 6.7      | 6.3      | 5.8      |


Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, barcha banklarda 2022–2024 yillarda NPL ulushi pasayish tendensiyasini ko‘rsatadi, bu esa amalga oshirilgan monitoring, risk baholash va kredit portfeli diversifikatsiyasi choralarining samaradorligini ko‘rsatadi. Eng past NPL ulushi 2024 yilda Asaka Bank va Hamkorbankda kuzatilgan, bu banklarning kredit siyosati va boshqaruv mexanizmlarining samarali ekanini tasdiqlaydi.

2-jadval

**NPL turlari bo‘yicha ulush (%) (2024)**

| Bank nomi    | Substandard | Shubhali | Umidsiz |
|--------------|-------------|----------|---------|
| Hamkorbank   | 2.1         | 1.8      | 1.3     |
| Ipoteka Bank | 2.5         | 2.0      | 2.0     |
| Asaka Bank   | 1.9         | 1.7      | 1.5     |
| Agrobank     | 2.3         | 2.0      | 1.5     |

NPL turlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, substandard va shubhali kreditlar banklarning asosiy muammoli kredit qismidir, umidsiz kreditlar esa ulush jihatidan kamroq. Bu natijalar kreditlarni monitoring qilish va qayta tuzish choralarining samaradorligini oshirishga imkon yaratadi.



### 1-rasm. NPLlarni kamaytirish jarayoni

1-rasm NPLlarni kamaytirishning kompleks yondashuvini aks ettiradi va har bir bosqichning muhimligini ko'rsatadi, ayniqsa monitoring tizimi va kreditlarni tasniflash jarayoni muammoli kreditlarni erta aniqlash va ularni samarali boshqarish imkonini beradi, natijada bankning moliyaviy barqarorligi va portfel sifatini oshirishga xizmat qiladi. Kredit berish jarayonida risklarni baholash banklar tomonidan qarz oluvchilarning moliyaviy holati, to'lov intizomi va biznes barqarorligini chuqur tahlil qilish orqali amalga oshirilib, kelgusida muammoli kreditlar shakllanishining oldini olishga xizmat qiladi. Kredit monitoringi va muammoli belgilarning erta aniqlanishi bankka kredit portfelidagi salbiy tendensiyalarni o'z vaqtida aniqlash hamda tezkor choralar ko'rish imkonini beradi. Kreditlarni substandard, shubhali va umidsiz toifalarga tasniflash esa risk darajasini aniq belgilash va har bir kredit bo'yicha alohida boshqaruv strategiyasini ishlab chiqish uchun muhim hisoblanadi. Muammoli kreditlarni qayta tuzish va garov mexanizmlarini mustahkamlash qarz majburiyatlarining qaytarilish ehtimolini oshirish bilan birga, bank yo'qotishlarini minimallashtirishga yordam beradi. Raqamli texnologiyalar va ilg'or boshqaruv mexanizmlarini joriy etish kredit jarayonlarining shaffofligini ta'minlab, risklarni avtomatik aniqlash va prognozlash imkoniyatlarini kengaytiradi. NPL ulushining pasayishini doimiy nazorat qilish bank strategiyasining muhim elementi bo'lib, u amalga

oshirilayotgan choralarning samaradorligini baholashga xizmat qiladi. Shu asosda ishlab chiqiladigan strategik tavsiyalar banklar faoliyatini takomillashtirish, kredit portfeli sifatini yaxshilash va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan ilmiy-amaliy yo‘nalishlarni belgilab beradi.

Tijorat banklarida muammoli kreditlar ulushini qisqartirish masalasi bank tizimining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va kredit resurslaridan samarali foydalanishni ta‘minlash nuqtai nazaridan alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Muammoli kreditlar ulushining yuqori bo‘lishi bank kapitali yetarliligi, likvidlik va rentabellik ko‘rsatkichlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatib, real sektorni moliyalashtirish imkoniyatlarini cheklaydi. Shu sababli, NPLlarni kamaytirishga qaratilgan ilmiy asoslangan mexanizmlarni ishlab chiqish bank risklarini boshqarish tizimini takomillashtirish va moliyaviy inqiroz xavflarini kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Natijada, tijorat banklarida muammoli kreditlar ulushini qisqartirish yo‘llarini izchil joriy etish milliy moliya tizimi barqarorligi va iqtisodiy o‘sishni ta‘minlashda strategik ahamiyatga ega hisoblanadi.

### 3-jadval

#### **Tijorat banklarida muammoli kreditlar ulushini qisqartirish yo‘llari va ularning tavsifi**

| <b>Yo‘l va choralar</b>                               | <b>Nazariy tavsif</b>                                                                                                                        |
|-------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Kredit portfeli diversifikatsiyasi</b>             | Turli sektor va mijoz guruhlariga kredit berish orqali bank riskini kamaytirish, muammoli kreditlar ulushini nazorat qilish.                 |
| <b>Qarz oluvchilarni moliyaviy tahlil qilish</b>      | Kredit berishdan oldin va davomida qarz oluvchining moliyaviy holatini chuqur o‘rganish, risklarni aniqlash va oldini olish.                 |
| <b>Monitoring tizimini takomillashtirish</b>          | Kreditlarni doimiy kuzatish, muammoli belgilarning erta aniqlanishini ta‘minlash va bank ichki nazorat mexanizmlarini takomillashtirish.     |
| <b>Garov va kafillik talablarini kuchaytirish</b>     | Kredit portfelidagi risklarni kamaytirish uchun garov va kafillik shartlarini kuchaytirish, muammoli kreditlarni oldini olish.               |
| <b>Raqamli texnologiyalarni joriy etish</b>           | Kredit berish, monitoring va qayta tuzish jarayonini avtomatlashtirish orqali NPLlarni aniqlash va boshqarish samaradorligini oshirish.      |
| <b>Kreditlarni qayta tuzish va restrukturizatsiya</b> | Muammoli kreditlarni qayta tuzish, to‘lov muddatini uzaytirish yoki shartlarni o‘zgartirish orqali ularni qaytarilish imkoniyatini oshirish. |
| <b>Ichki va tashqi audit tizimlarini kuchaytirish</b> | Bank ichki va tashqi nazoratini kuchaytirish, moliyaviy risklarni aniqlash va oldini olishga xizmat qiluvchi tizimlarni takomillashtirish.   |
| <b>Xodimlarni malaka oshirish va treninglar</b>       | Kredit riskini baholash va muammoli kreditlarni boshqarish bo‘yicha bank xodimlarining bilim va ko‘nikmalarini oshirish.                     |

3-jadvalda keltirilgan nazariy yondashuvlar tijorat banklarida muammoli kreditlar (NPL) ulushini qisqartirish jarayonining kompleks va tizimli xarakterga ega ekanini ko'rsatadi. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, kredit portfeli diversifikatsiyasi va qarz oluvchilarni moliyaviy tahlil qilish choralarining qo'llanilishi bank risklarini dastlabki bosqichdayoq kamaytirishga xizmat qiladi. Monitoring tizimini takomillashtirish va garov hamda kafillik talablarini kuchaytirish muammoli kreditlarni erta aniqlash va ularning portfeldagi salmog'ini nazorat qilish imkonini beradi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish esa kredit jarayonlarining shaffofligi va operativligini oshirib, NPLlarni boshqarish samaradorligini ta'minlaydi. Kreditlarni qayta tuzish va restrukturalizatsiya mexanizmlari muammoli kreditlarni qaytarish ehtimolini oshirish orqali bankning moliyaviy barqarorligini saqlashga yordam beradi. Shuningdek, ichki va tashqi audit tizimlarini kuchaytirish hamda xodimlarning malakasini oshirish NPLlarni kamaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan choralarning uzluksizligi va samaradorligini ta'minlovchi muhim institutsional omil hisoblanadi.

### **Xulosa**

Yuqoridagi tadqiqot va tahlillar tijorat banklarida muammoli kreditlar ulushini qisqartirish yo'llarini takomillashtirish bo'yicha quyidagicha xulosa qilish mumkin:

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarida muammoli kreditlar (NPL) ulushining oshishi bank tizimi barqarorligiga va kredit resurslarining real sektorga yo'naltirilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois NPLlarni qisqartirish masalasi bank risklarini boshqarish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash nuqtai nazaridan strategik ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda ko'rib chiqilgan nazariy va amaliy yondashuvlar mazkur muammoni kompleks hal etish zarurligini tasdiqlaydi.

Tahlillar kredit portfeli diversifikatsiyasi, qarz oluvchilarni chuqur moliyaviy tahlil qilish va monitoring tizimini takomillashtirish NPLlar ulushini kamaytirishda muhim omillar ekanini ko'rsatdi. Ushbu mexanizmlar muammoli kreditlarni erta bosqichda aniqlash va ularning portfeldagi salmog'ini nazorat qilish imkonini beradi. Natijada banklarning kredit siyosati yanada ehtiyotkor va samarali shakllanadi.



Tadqiqot davomida kreditlarni tasniflash, qayta tuzish va garov mexanizmlarini kuchaytirish muammoli kreditlar bilan ishlashda muhim boshqaruv vositasi ekani aniqlandi. Bu yondashuvlar kreditlarning qaytarilish ehtimolini oshirish bilan birga, bank yo‘qotishlarini minimallashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, NPLlarni restrukturizatsiya qilish bank va qarz oluvchi o‘rtasidagi moliyaviy muvozanatni saqlashga yordam beradi.

Raqamli texnologiyalar va ilg‘or boshqaruv mexanizmlarini joriy etish kredit jarayonlarining shaffofligi va tezkorligini oshirib, risklarni avtomatik baholash imkonini kengaytiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamlashtirish banklarda NPLlarni boshqarish samaradorligini sezilarli darajada oshiruvchi omil hisoblanadi. Bu esa bank faoliyatining institutsional jihatdan mustahkamlanishiga olib keladi.

Umuman olganda, tijorat banklarida muammoli kreditlar ulushini qisqartirish yo‘llarini takomillashtirish bank tizimi barqarorligini mustahkamlash va milliy iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotda ilgari surilgan xulosalar va tavsiyalar banklar hamda moliyaviy regulyatorlar uchun amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu tariqa, NPLlarni samarali boshqarish bo‘yicha kompleks yondashuvni joriy etish moliya tizimining uzoq muddatli barqarorligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. <https://data.worldbank.org/indicator/FB.AST.NPER.ZS> - World Bank. Bank nonperforming loans to total gross loans (%). World Development Indicators (WDI), 2022–2023.
2. World Bank. Bank nonperforming loans to total gross loans (%). World Development Indicators (WDI), 2022–2023.
3. <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/2866713/>
4. Khairi A., Bahri B., Artha B. A literature review of non-performing loan //Journal of Business and Management Review. – 2021. – T. 2. – №. 5. – C. 366-373.
5. Saba I. et al. Determinants of non performing loans: Case of US banking sector //The Romanian Economic Journal. – 2012. – T. 44. – №. 6. – C. 125-136.

6. Khan M. A., Siddique A., Sarwar Z. Determinants of non-performing loans in the banking sector in developing state //Asian Journal of Accounting Research. – 2020. – T. 5. – №. 1. – C. 135-145.

7. Khan M. A., Siddique A., Sarwar Z. Determinants of non-performing loans in the banking sector in developing state //Asian Journal of Accounting Research. – 2020. – T. 5. – №. 1. – C. 135-145.

8. Makri V., Tsagkanos A., Bellas A. Determinants of non-performing loans: The case of Eurozone //Panoeconomicus. – 2014. – T. 61. – №. 2. – C. 193-206.

9. Xojimatbek Abdug'affor og'li, Tillaboyev. "TIJORAT BANKLARINING MUAMMOLI KREDITLARINI KAMAYTIRISH YO 'LLARI ("HAMKORBANK" ATB MISOLIDA)." TADQIQOTLAR 70.2 (2025): 190-195.

10. Axrorqulov A. TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNING UNDIRILISHI BO 'YICHA XORIJ TAJRIBASI //Иновационные исследования в современном мире: теория и практика. – 2025. – T. 4. – №. 21. – C. 50-53.

11. Baxtiyarovich, Abdrimov Diyorbek. "BANKLARDA MUAMMOLI KREDITLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO 'LLARI." Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting 4.Maxsus son (2024): 229-235.

12. Bobokulov T. U., Karimov N. G., Abdullayev U. A. Xalqaro valuta-kredit munosabatlari //Ma'ruzalar matni. T.: TMI. – 2015. – T. 244.; Abdullayeva S. Z. Pul, kredit va banklar //Toshkent, iqtisod-moliya. – 2007.